

«CHO'NTAK DINOZAVRLARI» QAYERDA YASHAYDI?

«Cho'ntak dinozavrlari» — deyarli doimo bir xil to'rtta (ba'zida, kamdan-kam hollarda, uchta yoki ikkita) bola tug'adigan yagona sut emizuvchi-dir. Ular bitta urug'langan tuxumdan paydo bo'ladi: hammasi bir xil jinsda, hammasida genlar to'plami bir xil bo'ladi.

Bronenosetslarning 20 ta turidan biri — G'arbiy yarim sharda yashaydigan to'qqiz tasmali deb ataladigan o'z qalqoni bilan tugiladi.

Qalqon jonzo'tning orqa va yon tomonlarini himoya qiladi. qalqon 9 (ba'zida 8 yoki 10) harakatchan tasmadan iborat bo'ladi, ularni yumshoq. teri burmalari birlashtirib turadi. Bu tanani egiluvchan qiladi. Bronenosetsning boshi va dumi ham qalqonli, faqat qorning yupqa terisi siyrak dag'al tuk bilan qoplangan bo'ladi.

Ko'rinishidan bronosetsning qalqoni dushmanlardan ishonchli himoya vositasiga o'xshaydi. Ammo ma'lum bulishicha, yirik yirtqichlar tishlari uni bemalol teshib o'tar ekan.

Bundan chiqdi, u nimaga kerak?

Odam yoki uning itidan qochib kelayotgan bronosets o'zini qalin tikanzorlar ichiga urishini ko'rganingizda savolning javobi ayon bo'ladi. Odam to'xtaydi, itning yugurishi sekinlashadi, bronosets esa qalqoni tufayli tikanzorlar orasida bemalol yura oladi. Shunday qilib, bu hayvonning qalqonini —jangchining qalqoni emas, balki kavboyning kiyimi deyish mumkin.

YER CHO'CHQASI QANDAY HAYVON?

Yer cho'chqasi Janubiy Afrikada yashaydi. U — uzun quloqli, o'tkir tirnoqli va uzun yopishqoq tilli hayvon. Bu hayvon haqiqatan ham nimasi bilandir cho'chqani eslatsa-da, u aslida chumolixo'rlarga mansubdir. U o'zining o'tkir tirnoqlari bilan chumoli inlarini kavlaydi, kavlaganda ham belkurakli odamdan tezroq. kavlaydi. Yer cho'chqasi chumolilar va qirchumolilarni uzun yopishqoq. tili bilan tutib yeydigan, 1,5 metr atrofidagi tungi hayvon hisoblanadi.

YALQOV QANDAY HAYVON?

Biz odamni yalqov deganimizda, uning dangasaligini va sustkashligini nazarda tutamiz. Bunday xususiyatlar kun va tun 18 soat uxlaydigan shu nomdagi hayvonni eslatadi.

Yalqovlar Markaziy va Janubiy Amerikada Nikaraguan to Braziliyagacha bo'lgan hududda yashaydigan g'aroyib ko'rinishdagi hayvonlar hisoblanadi. Ular daraxtlarda yashaydi, o'rmonsiz yerlarda hech qachon uchramaydi. Yalqovlar — sut emizuvchilardir. Ular chumolixo'r, bronenosets, naytish bilan uxshashlikka ega.

Yalqovning ikkita: ikki barmoqli va uch barmoqli turi mavjud. Uch barmoqlari har bir oyog'ida uchtdan barmoqqa ega. Ikki barmoqlilari — oldingi oyoqlarda ikkita va orqa oyoqlarda uchta barmoqqa ega bo'ladi.

Ular shoxlarda oyoqlarini yuqoriga, orqalarini pastga qilib osilib turishda oyoqlari va barmoqlaridan foydalanadi. Tunda ular o'zlari oziqlanadigan barglari va novdalarni izlab, shoxlarda sustlik bilan harakat qiladi.

Yalqovlar daraxtlarda, baquvvat shoxlarning tepasida uxlaydi. Ba'zida ular yerga sirpanib tushadi, daryo yoki kulga yetgach, hech bir hadiksiz unga shung'iydi va yengil suzib ketadi.

Yalqovning aqliy qobiliyati juda zaif, chunki miyasi nixoyatda kichkina. Tana harorati barcha sut emizuvchilar orasida eng past bo'lgan bu hayvon ba'zida o'zini issiqqonlidan ko'ra ko'proq. sovuqqonli hayvon singari tutadi.

Yalqovning muynasi kulrang va paxmoq, bo'ladi. Ba'zida muynasida suv o'ti o'sadi va u yashil tus kasb etadi. Bu yalqovga qo'l keladi, chunki yashil rang uni burgutlar, yagarlar va boshqa yirtqichlarga mutlaqo sezdirmaydi.

QANDAY XAYVONLAR XALTALILAR HISOBLANADI?

Yevropalik sayyohlar Yangi Dunyoga borganlarida o'zlariga g'aroyib va yangi tuyulgan narsalarni olib qaytganlar. Masalan, Janubiy Amerika opossumi (qopchiqli kalamush) 1500 yili Braziliyadan olib kelingan, 1770 yili esa kapitan Kuk o'zi Avstraliyada ko'rgan kenguru to'g'risida gapirib bergan. O'sha vaqtgacha Yevropada hech kim bunday hayvonlar to'g'risida eshitmagandi — ular haltalilar edi.

Xaltalilar sut emizuvchilarning alohida turkumi hisoblanadi. Ularning ilmiy nomi «xalta» degan ma'noni anglatuvchi «marsupion» so'zidan kelib chiqqan. Bu hayvonlar tug'ilganidan so'ng onasi tanasidagi xaltadan chiqmay yashashlari va oziqlanishlari bilan ajralib turadi.

Bu ular uchun juda zarur, chunki xaltalilar tug'ilganda shu qadar kichik va zaif bo'ladiki, ular o'zini-o'zi eplay olmaydi. Ular hatto oziqlanishni ham bilmaydi. Yosh kenguru va opossumlar hatto bir muncha katta bo'lib qolganlarida

ham biror xavf tug'ilib qolguday bo'lsa, yugurib kelib onalarining xaltalariga kirib yashirinadi.

Tog'larda topilgan toshga aylangan hayvonlar qoldiqlariga asoslanadigan bo'lsa, qachonlardir haltalilar kurrai zaminning hamma yerida yashagan. Hozirgi kunda haltalilarning deyarli barcha turini Avstraliya va uning atrofidagi orollardagina uchratish mumkin. Shimoliy va Janubiy Amerikada yashovchi xaltalilarning yagona vakili bo'lgan opossum ularning har xil turlardan biridir.

Avstraliyada xaltalilarning g'oyat xilma-xil turlarini: uzunligi bir necha dyuym bo'lgan ko'rsichqonga o'xshash mu'jaz jonzotlardan to ulkan kengurugacha uchratish mumkin. Ulardan ayrimlari, masalan, bandikutlar quyonga o'xshab ketadi. Boshqalari, aytaylik, vombatlar kunduzga, tilatsinlar (yoki tasman bo'rilar) bo'riga o'xshash bo'ladi.

Haltalilar yerda yoki maymunlar kabi daraxtlarda yashay oladi. Haltalilar oilasiga mansub kuskuslarning ayrimlari hatto uchuvchi olmaxon kabi daraxtdan daraxtga uchib o'tishi mumkin. Haltalilar juda xilma-xil yemishlar bilan oziqlanadi. Ularning ayrimlari faqat sabzavot, boshqalari hasharot yoki go'sht, yana boshqalari esa topgan-tutganini iste'mol qiladi.

KENGURU QANDAY SAKRAYDI?

Kenguru — Yrdagi hayvonlarning eng g'aroyibi va qadimiysi hisoblanadi. Bizga ma'lumki, yuz ming yillar ilgari yerda kengurining otga tenglashadigan turi yashagan!

Hozirgi kunda kenguruni «Kengurular mamlakati» deb atalmish Avstraliyada uchratish mumkin. Kenguru hatto bu mamlakat gerbida xam aks ettirilgan.

Kenguru — xaltalilar orasida eng mashhuri. Ona kenguru bolalarini orqa oyoqlari orasida qornida joylashgan muyna xaltachada olib yuradi va shu yerda boqadi. Kenguru bolalari bu xaltachada uzoq, muddat yashaydi.

Tug'ilganda bir dyumdan bir oz kattaroq hajmdagi kenguru bolasi uvoqqina, pushti rang, tuksiz, dum-dumaloq bo'ladi! Onasi tug'ilgan zahoti uni xaltachasiga soladi va bola yana ma'lum muddat mutlak. nochor ahvolda bo'ladi. Olti oylik bo'lganda, u kuchukchadek kattalik kasb etadi. U hamma yerga onasining xaltasida boshini chiqarib boradi. Onasi daraxtlar barglarini yeyish uchun to'xtaganda, u ham barglarni uzib yeydi.

Kenguru bolasi yurish va yugurishni urgangandan keyin ham iliq, xavfsiz xaltachani tark etgisi kelmaydi. Xavf tug'ilganda ona bolasi oldiga sakrab-sakrab keladi hamda uni lablari bilan olib, betuxtov va ohista xaltachasiga soladi.

Kenguru katta bo'lganda bo'yi ikki metrgacha yetadi. Uning old oyoqlari kalta va orqa oyoqlari juda uzun bo'ladi. Bu kuchli orqa oyoqlar kenguruga 13 metrgacha uzunlikka sakrash imkonini beradi! Kenguru sakrash vaqtida tayanish va muvozanatni saqlash uchun o'zining ulkan, uzun dumidan foydalanadi.

Avstraliyada kengurular ovlanadi, chunki ular hosilni payxon qiladi. Ular go'shtidan taom, terisidan ajoyib, pishiq. charm tayyorlanadi. Kenguruni xavf-xatardan tezligi va uzoqdan yaqinlashayotgan dushmanni eshitish imkonini beradi sezgir quloqlari himoya qiladi. Kenguru ovchi itlar ko'magida ovlanganda u itni old oyoqlari bilan tutib olib, orqaga oyog'ining bir zarbasi bilan tepib o'ldirishi mumkin.

KO'RSHAPALAKLARNING TISHI BO'LADIMI?

Ko'rshapalaklarning mingdan ortiq. turi mavjud va tabiiyki, ular o'rtasida ko'p farqlar bor. Ko'rshapalaklarning ko'pchiligi hasharotlarni tutib yeydi, ammo issiq. mintaqalarda mevalar yoki gul changi bilan oziqlanadiganlari ham bor. Baliq, o'zidan kichikroq ko'rshapalaklarni tutib yeydigan va hatto hayvonlar qonini ichadigan ko'rshapalaklar ham bor. Buyuk Britaniyadagi eng katta ko'rshapalak tanasining uzunligi 13 santimetr, yozilgan qanotlari 33 santimetrdan 36 santimetrgachadir. U o'rmonzorlarda yashaydi va yirik hasharotlarni tutib yeydi.

Meva bilan ozitqlanadigan ko'rshapalaklar tropiklarda yashaydi. Ularning tishlari keng, yassi bulib, ular bu tishlar yordamida mevani ezib sharbatini chiqaradi. Gul changi bilan oziqlanadigan ko'rshapalaklarning tili uzun bo'lib, u gul ichiga kirib boradi.

Ko'rshapalak-vampirlarga faqat qon kerak. Ular ot, sigir, it, jujalar qonini suradi, ba'zida hatto odamlarga ham hujum qiladi. Ular o'tkir yuqoridagi keskichlar (oldingi tishlar) bilan o'z o'ljalari terisini tishlaydi va yaradan oqib chiqayotgan qonni yalaydi.

Ko'rshapalakda 20 tadan 38 tagacha tish bo'lishi mumkin. Qizig'i shundaki, 22 ta tishi bor ko'rshapalakni hali hech kim uchratmagan. Hasharotxo'r ko'rshapalaklardan ayrimlari 38 ta tishga ega bo'ladi. Bunday tishlar ko'rshapalaklar uchun katta ahamiyatga ega ekanligiga ishonch hosil qilish qiyin emas.

Ko'rshapalaklar odatda tup-tup bo'lib yashaydi, ammo o'zlari uchun uya qurmaydi. Ular odatda g'orda yashaydi. Ayrim g'orlarda mingta ko'rshapalakdan tashkil topgan to'da yashashi mumkin. Ammo ular birorta daraxt kovagida o'nta, yigirmata ko'rshapalakdan iborat kichik to'dalar bo'lib ham yashashi mumkin.

Bilasizmi, ko'rshapalaklar bu dunyoda juda qadimdan yashaydi, shunday ekan, ularni sut emizuvchilarning eng qadimiysi deb hisoblash mumkin bo'ladi.

VAMPIR HAYVON BORMI?

Qon suradigan ko'rshapalaklar vampir deb ataladi, shuning uchun ko'pchilik odamlar undan qo'rqishadi. Qachonlardir Sharqiy Yevropada vampirlar tug'risida ko'p afsonalar to'qilgan. Ularda to'nda yaxshilik qiyofasiga kiruvchi marxumlarning arvohlari vampirlar sifatida ifodalangan. Ular tevarak-atrofdan daydib, qon surish niyatida kuzatib yurar emish. XVIII asr boshida Janubiy va Markaziy Amerika bo'ylab sayohatga chiqqan tadqiqotchilar qon bilan oziqlanuvchi ko'rshaplaklarni aniqlashgan. Ular uylariga qaytib kelgach, qo'rquvdan burttirilgan tasavvurlarini oshirib-toshirib so'zlaydigan bo'lganlar va shundan so'ng vampirlar tug'risidagi eski afsonalar ko'rshapalaklar bilan bog'lana boshlagan.

Vampirlar faqat Markaziy va Janubiy Amerikada yashaydi. Yoyilgan qanotlari 30 santimetr, tanasining uzunligi 10 santimetrdir. Ilgarilari vampirlar qonni suradi deb hisoblanardi, ammo aslini olganda ular oqayotgan qonni yalaydi. Shunisi ham borki, bu qonxo'r hayvonlar o'z qurbonlari qonini u uyquda bo'lgan paytda yalaydi.

Vampirlarning so'lagida yaradagi og'riqni qoldiradigan va qonning qotib qolishiga yo'l qo'ymaydigan modda bor deb hisoblanadi. Vampirlar odamga yaqinlashishdan qo'rqadi. Ular sigir, ot, echki va hatto jo'jalar qonidan oziq. sifatida bimalol foydalanadi. Ba'zi hollarda vampirlar qurbonlari uchun halokatli bo'lgan kasalliklarni tashuvchilar hisoblanadi.